BMSM 2-sinf o‘quvchilarida fortepiano ijrochiligini o‘rgatishda kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan pedagogik texnologiyalar

Durdona Bobomurodovna Karriyeva
Buxoro xalqaro universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada bolalar musiqa va san’at maktablari 2-sinf o‘quvchilariga fortepiano ijrochiligini o‘rgatishda kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan pedagogik texnologiyalarni qo‘llash masalalari yoritilgan. Kompetensiyaviy yondashuvning mohiyati, uning boshlang‘ich musiqa ta’limidagi o‘rni hamda ijrochilik, musiqiy-nazariy, eshitish va mustaqil o‘qish kompetensiyalarining tarkibi tahlil qilingan. Muammoli ta’lim, hamkorlikda o‘qitish, loyiha usuli, refleksiya va raqamli vositalardan foydalanishga asoslangan dars shakllari ham amaliy misollar bilan tavsiya etilgan. O‘quvchining bilimlarni amaliy vaziyatlarda qo‘llay olishi, o‘z ijrosini tahlil qilishi va mustaqil o‘rganish ko‘nikmasini egallashi zarurligi asoslab berilgan. Taklif etilgan metodik tavsiyalar o‘quv natijalarini aniq belgilash, ularni xolis baholash va o‘quvchilarda mustaqil, ijodiy fikrlaydigan yosh ijrochini tarbiyalashga samarali xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: kompetensiyaviy yondashuv, pedagogik texnologiyalar, fortepiano, ijrochilik kompetensiyasi, BMSM, muammoli ta’lim, hamkorlikda o‘qitish, refleksiya, mustaqil o‘rganish, o‘quv natijalari

Pedagogical technologies based on the competency-based approach in teaching piano performance to 2nd-grade students of children’s music and art schools

Durdona Bobomurodovna Karriyeva
Bukhara International University

Abstract: This article discusses how pedagogical technologies based on the competency-based approach can be used to teach piano performance to 2nd-grade students of children's music and art schools. It analyzes what the competency-based approach involves, its role in primary music education, and what makes up performance, music-theory, aural and independent-learning competencies. The article also recommends lesson formats built on problem-based learning, collaborative learning, the project method, reflection and digital tools, with practical examples. It

(cc) BY

argues that students need to be able to apply their knowledge in practical situations, analyze their own performance and learn independently. The proposed methodological recommendations help teachers set clear learning outcomes and assess them objectively, and help raise independent, creative young performers.

Keywords: competency-based approach, pedagogical technologies, piano, performance competency, children's music and art school (CMAS), problem-based learning, collaborative learning, reflection, independent learning, learning outcomes

Bugungi kunda ta'lim tizimida ro'y berayotgan o'zgarishlarning mohiyatini bir jumla bilan ifodalash mumkin. Endi o'quvchi qancha narsani bilishi emas, balki bilganini hayotda, amaliy vaziyatda qanchalik qo'llay olishi muhim. Bu tamoyil musiqa ta'limiga ham bevosita taalluqli. Fortepiano o'qituvchisi uchun o'quvchining bir nechta pyesani yod olib, imtihonda chalib berishi yetarli natija emas. Asl maqsad bolani notani mustaqil o'qiy oladigan, yangi asarni o'zi tahlil qila biladigan, o'z ijrosini tinglab, xatosini topa oladigan, musiqani his qilib, uni boshqalarga yetkaza oladigan shaxs sifatida tarbiyalashdir. Ana shu maqsad kompetensiyaviy yondashuvning markazida turadi. Magistratura bosqichida olib borayotgan izlanishlarimiz va bolalar musiqa va san'at maktablarida o'tagan pedagogik amaliyotimiz davomida bu yondashuvning fortepiano ta'limidagi imkoniyatlari bizni tobora ko'proq qiziqtira boshladi.

Kompetensiya so'zi lotincha "competere", ya'ni "mos kelmoq, layoqatli bo'lmoq" ma'nosidagi so'zdan kelib chiqqan. Pedagogikada kompetensiya deganda bilim, ko'nikma, malaka, tajriba va shaxsiy sifatlarning shunday uyg'unligi tushuniladiki, u insonga muayyan faoliyatni samarali bajarish imkonini beradi. Kompetensiyaviy yondashuv esa ta'lim jarayonini aynan shunday yaxlit layoqatlarni shakllantirishga yo'naltirishni anglatadi. Bu yondashuvda o'quvchi bilimni tayyor holda qabul qiluvchi passiv tinglovchi emas, balki uni izlab topuvchi, qo'llovchi va baholovchi faol ishtirokchiga aylanadi. O'qituvchining roli ham o'zgaradi. U bilim manbai bo'lishdan ko'ra ko'proq yo'l ko'rsatuvchi, maslahatchi va hamkorga aylanadi. Bu o'zgarish birinchi qarashda oddiy tuyulsa-da, aslida ta'limning butun mazmuni, usullari va baholash tizimini qayta ko'rib chiqishni talab qiladi.

Kompetensiyaviy yondashuv g'oyalari jahon pedagogikasida o'tgan asrning oxirlaridan boshlab faol rivojlana boshladi. Yevropa ta'lim tizimlarida tayanch kompetensiyalar tushunchasi ishlab chiqildi, ta'lim natijalarini aniq va o'lchanadigan shaklda belgilash an'anaga aylandi. Rus pedagoglari I. A. Zimnyaya, A. V. Xutorskoy kabi olimlar kompetensiya va kompetentlik tushunchalarini chuqur tahlil qilib, ularning tasnifini ishlab chiqdilar. Xutorskoy, xususan, tayanch, umumpredmet va predmet kompetensiyalarini ajratib, ularning o'zaro bog'liqligini ko'rsatib bergan. Mamlakatimizda ham ta'lim standartlari kompetensiyaviy yondashuv asosida qayta

(cc) BY

ishlab chiqildi, umumta'lim maktablarida tayanch va fanga oid kompetensiyalar tizimi joriy etildi. Bu jarayon tabiiy ravishda musiqa va san'at maktablariga ham ta'sir ko‘rsatmoqda va ularning o‘quv dasturlarini yangicha nigoh bilan ko‘rib chiqishni taqozo etmoqda.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda madaniyat va san'at sohasini rivojlantirishga qaratilgan islohotlar bolalar musiqa va san'at maktablari faoliyatiga ham yangi talablar qo‘ymoqda. Maktablar zamonaviy cholg‘ular bilan jihozlanmoqda, o‘qituvchilar malakasini oshirish tizimi takomillashmoqda, iqtidorli bolalarni aniqlash va qo‘llab-quvvatlashga katta e'tibor qaratilmoqda. Shu bilan birga, ta'lim sifatiga bo‘lgan talab ham ortib bormoqda. Ota-onalar farzandining musiqa maktabida shunchaki "vaqt o‘tkazishini" emas, balki aniq natijaga erishishini, musiqani chinakam tushunib, undan zavq olishini istashadi. Bunday sharoitda an'anaviy, asosan o‘qituvchining ko‘rsatmasi va o‘quvchining taqlidiga tayangan o‘qitish modeli yetarli bo‘lmay qolmoqda. Fortepiano ta'limini kompetensiyaviy yondashuv asosida qayta tashkil etish zarurati tobora yaqqol sezilmoqda.

Nega aynan ikkinchi sinf? Pedagogik amaliyot davomida olib borgan kuzatishlarimiz bu savolga aniq javob berdi. Birinchi sinfda bola cholg‘u bilan tanishadi, eng oddiy ijro usullarini, dastlabki nota belgilarini o‘zlashtiradi. Bu davrda o‘qituvchi asosan ko‘rsatib berish va o‘yin orqali ishlaydi, bola esa ko‘proq taqlid qiladi. Ikkinchi sinfda esa sifat jihatidan yangi bosqich boshlanadi. Repertuar kengayadi, ikki qo‘lning mustaqil harakati talab qilinadi, bas kaliti faol qo‘llaniladi, ritmik va faktura qiyinchiliklari paydo bo‘ladi. Eng muhimi, bola endi faqat taqlid qilish bilan cheklanib qola olmaydi. Unga mustaqil fikrlash, notani o‘zi tahlil qilish, o‘z ijrosini baholash kerak bo‘ladi. Aynan shu davrda kompetensiyalarning poydevori qo‘yiladi va bu poydevor keyingi barcha yillardagi rivojlanishni belgilab beradi.

Sakkiz-to‘qqiz yoshli bolaning psixologik xususiyatlari ham kompetensiyaviy yondashuvni qo‘llash uchun qulay imkoniyat yaratadi. Bu yoshda bola o‘quv faoliyatiga to‘liq moslashgan, uning ixtiyoriy diqqati va xotirasi faol rivojlanmoqda. U endi oddiy taqlid bilan qanoatlanmay, "nima uchun?", "qanday qilib?" degan savollarni ko‘proq bera boshlaydi. Tafakkuri hali ko‘rgazmali-obrazli xarakterga ega bo‘lsa-da, unda mantiqiy fikrlash, solishtirish, umumlashtirish elementlari paydo bo‘ladi. Bola o‘z yutuqlari va muvaffaqiyatsizliklarini anglay boshlaydi, tengdoshlari bilan o‘zini solishtiradi. Shu bilan birga, bu yoshda o‘ziga bo‘lgan ishonch juda mo‘rt bo‘ladi, bir necha muvaffaqiyatsizlik bolani tushkunlikka solishi mumkin. Kompetensiyaviy yondashuv bu xususiyatlarni hisobga olgan holda bolaning faolligini, mustaqilligini va o‘z kuchiga ishonchini asta-sekin rivojlantirishga imkon beradi.

Fortepiano ijrochiligi sohasida qanday kompetensiyalar haqida gapirish mumkin? Bizning fikrimizcha, ikkinchi sinf o‘quvchisi uchun to‘rtta asosiy kompetensiyani ajratib ko‘rsatish maqsadga muvofiq. Birinchisi, ijrochilik kompetensiyasi, ya'ni

(cc) BY

to‘g‘ri o‘tirish, qo‘l holati, tovush chiqarish, applikaturani ongli qo‘llash, ritmik barqarorlik, dinamika va shtrixlarni ifodali ijro eta olish. Ikkinchisi, musiqiy-nazariy kompetensiya, ya’ni nota savodi, o‘lchov, tonallik, musiqiy shakl haqidagi bilimlarni amaliyotda qo‘llay olish. Uchinchisi, eshitish kompetensiyasi, ya’ni o‘z ijrosini va boshqalar ijrosini tinglash, tovush sifatini, ritm va dinamikani eshitib baholay olish. To‘rtinchisi esa mustaqil o‘qish kompetensiyasi, ya’ni yangi asarni mustaqil tahlil qilish, uy mashg‘ulotini to‘g‘ri tashkil etish, o‘z xatolarini topib, ularni tuzatish yo‘llarini izlay olish.

Bu kompetensiyalar bir-biridan ajralgan holda mavjud emas. Ular o‘zaro chambarchas bog‘liq va bir-birini to‘ldiradi. Masalan, bola nota matnini to‘g‘ri o‘qiy olmasa, ijrochilik kompetensiyasi ham to‘liq rivojlanmaydi. O‘z ijrosini eshitmaydigan o‘quvchi esa xatolarini topa olmaydi va mustaqil o‘rganish qobiliyati shakllanmaydi. Shuning uchun kompetensiyaviy yondashuvda darsni shunday tashkil etish kerakki, unda bir vaqtning o‘zida bir nechta kompetensiya rivojlansin. Masalan, yangi pyesa ustida ishlashda o‘quvchi avval notani mustaqil tahlil qiladi, so‘ng uni klaviaturada sinab ko‘radi, o‘z ijrosini tinglab, qaysi joylarda qiyinchilik borligini aniqlaydi va ularni bartaraf etish yo‘llarini o‘qituvchi bilan birga izlaydi. Bunday yaxlit faoliyat bilim va ko‘nikmalarni haqiqiy kompetensiyaga aylantiradi.

An’anaviy fortepiano ta’limi bilan kompetensiyaviy yondashuv o‘rtasidagi farqni oddiy misolda ko‘rish mumkin. An’anaviy darsda o‘qituvchi yangi pyesani o‘zi chalib beradi, so‘ng o‘quvchi bilan uni takt-takt bo‘yicha o‘rganadi, har bir xatoni o‘zi ko‘rsatib, tuzatadi. O‘quvchi esa ko‘rsatmalarni bajaradi. Natijada pyesa o‘rganiladi, lekin bola mustaqil ishlashni o‘rganmaydi. Kompetensiyaviy yondashuvda esa o‘qituvchi avval o‘quvchiga savol beradi. Bu pyesa qanday kayfiyatda? Unda nechta qism bor? Qaysi joylar o‘xshash? Qayerda qiyinchilik bo‘lishi mumkin? Bola bu savollarga javob izlab, notani o‘zi tahlil qiladi. Xato qilganda o‘qituvchi darhol tuzatmay, “yana bir bor tinglab ko‘r, nima o‘zgarishi kerak?” deb so‘raydi. Bu yo‘l ko‘proq vaqt talab qiladi, ammo bolada mustaqil fikrlash va o‘z-o‘zini nazorat qilish qobiliyatini shakllantiradi.

Pedagogik amaliyotimiz davomida bunday farqni yaqqol ko‘rgan holatlar ko‘p bo‘ldi. Bir ikkinchi sinf o‘quvchisi birinchi yil davomida juda yaxshi natija ko‘rsatgan, barcha pyesalarini chiroyli ijro etgan edi. Ammo yangi o‘quv yili boshida unga ilgari ko‘rmagan oddiy bir pyesani mustaqil o‘rganib kelish topshirildi. Bir haftadan so‘ng ma’lum bo‘ldiki, bola notalarni to‘g‘ri topgan, lekin ritmni butunlay buzgan, applikaturaga e’tibor bermagan, dinamik belgilarni esa umuman ko‘rmagan. Uning o‘zi esa ijrosini “yaxshi” deb hisoblagan. Bu holat bolaning bilimlari bor, ammo ularni mustaqil qo‘llash va o‘z ishini baholash kompetensiyasi shakllanmaganini ko‘rsatdi. Bunday misollar yakka emas va ular ta’lim jarayonini kompetensiyaviy yondashuv asosida qayta qurish zarurligini tasdiqlaydi.

(cc) BY

Pedagogik texnologiya tushunchasi ham ushbu mavzuni tushunish uchun muhim. Pedagogik texnologiya deganda oldindan belgilangan ta'lim natijalariga kafolatli erishishni ta'minlovchi, izchil va tizimli tashkil etilgan o'qitish jarayoni tushuniladi. Uning asosiy belgilari maqsadning aniqligi, jarayonning bosqichma-bosqich tuzilishi, natijalarni tashxis qilish va baholash imkoniyati hamda takrorlanuvchanligidir. V.P.Bespalko, M.V.Klarin kabi olimlar pedagogik texnologiyalar nazariyasini rivojlantirishga katta hissa qo'shganlar. O'zbekistonda ham bu yo'nalishda N.Saidahmedov, J.G'.Yo'ldoshev kabi olimlarning ishlari ma'lum. Kompetensiyaviy yondashuv va pedagogik texnologiyalar bir-birini to'ldiradi. Birinchisi nima o'rgatish kerakligini, ya'ni qanday kompetensiyalarni shakllantirish lozimligini belgilasa, ikkinchisi buni qanday qilib samarali amalga oshirish yo'lini ko'rsatadi.

Fortepiano ta'limida qo'llash mumkin bo'lgan pedagogik texnologiyalar xilma-xil. Muammoli ta'lim texnologiyasi o'quvchi oldiga muammoli vaziyat qo'yib, uni mustaqil yechim izlashga undaydi. Masalan, "bu ibora nima uchun zerikarli eshitilyapti va uni qanday qilib qiziqarli qilish mumkin?" degan savol bolani dinamika, agogika va iboralash haqida o'ylashga majbur qiladi. Hamkorlikda o'qitish texnologiyasi o'quvchilarning juftlikda yoki kichik guruhda ishlashini, bir-birining ijrosini tinglab, fikr bildirishini nazarda tutadi. Loyiha usuli esa o'quvchiga ma'lum muddat davomida biror ijodiy vazifa ustida ishlash, masalan, kichik konsert dasturini tayyorlash yoki sevimli kuyini o'zi notaga tushirishga harakat qilish imkonini beradi. Refleksiya texnologiyasi bolani o'z faoliyatini tahlil qilishga, nima yaxshi chiqqani va nimani yaxshilash kerakligini anglashga o'rgatadi.

Muammoli ta'lim fortepiano darsida ayniqsa samarali bo'lishi mumkin. Ikkinchi sinf o'quvchisi tayyor javobni qabul qilishdan ko'ra o'zi topgan javobni ancha yaxshi eslab qoladi. Masalan, o'qituvchi bir xil kuyni ikki xil, birinchisini legato, ikkinchisini staccato bilan chalib berib, "qaysi biri bu pyesaning nomiga ko'proq mos keladi va nima uchun?" deb so'rashi mumkin. Bola tinglab, solishtirib, fikr yuritib, o'z javobini asoslaydi. Yoki applikatura ustida ishlashda o'qituvchi "bu passajni qaysi barmoqlar bilan chalsak qulayroq bo'ladi, sinab ko'r" deb, bolaga bir necha variantni o'zi sinab ko'rish imkonini beradi. Bunday vaziyatlarda bola faqat ijro etuvchi emas, balki tadqiqotchiga aylanadi. U musiqa haqida o'ylaydi, qaror qabul qiladi va uning uchun javobgarlikni his qiladi.

Hamkorlikda o'qitish texnologiyasi fortepiano ta'limida kam qo'llaniladi, chunki dars odatda yakka tartibda o'tadi. Ammo bu texnologiyaning imkoniyatlari juda katta. Ikki o'quvchini birlashtirib o'tkaziladigan juftlik darslari, kichik guruh mashg'ulotlari, sinf ichidagi o'zaro tinglov soatlari bolalarda bir-birini tinglash, xayrixoh fikr bildirish, boshqalar tajribasidan o'rganish ko'nikmalarini shakllantiradi. To'rt qo'lda chalish, ya'ni ikki o'quvchining birgalikdagi ansambl ijrosi esa ritmik barqarorlik, sherikni tinglash va umumiy musiqiy maqsad sari harakat qilishni o'rgatadi. Bola tengdoshining

(cc) BY

ijrosini tinglab, undagi xatoni osonroq payqaydi va bu orqali o‘z ijrosiga ham tanqidiy nazar bilan qarashni o‘rganadi. Shuningdek, hamkorlik muhiti bolaning ijtimoiy kompetensiyalarini ham rivojlantiradi.

Refleksiya kompetensiyaviy yondashuvning eng muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Refleksiya deganda o‘quvchining o‘z faoliyatini, uning natijalari va jarayonini anglashi, tahlil qilishi va baholashi tushuniladi. Ikkinchi sinf o‘quvchisi uchun bu murakkab vazifa, ammo uni oddiy shakllarda boshlash mumkin. Masalan, har bir dars oxirida o‘qituvchi bolaga “bugun nima yaxshi chiqdi?”, “nima qiyin bo‘ldi?”, “uyda nimaga ko‘proq e’tibor berasan?” degan savollarni beradi. Yoki bola o‘z ijrosini yozib olib, keyin tinglaydi va unga baho beradi. Rangli kartochkalar, “kayfiyat shkalasi”, kichik o‘z-o‘zini baholash varaqalari kabi vositalar ham refleksiyani bolaning yoshiga mos shaklda tashkil etishga yordam beradi. Asta-sekin bola o‘z ishiga ongli munosabatda bo‘lishga, kuchli va zaif tomonlarini ko‘rishga o‘rganadi.

Raqamli texnologiyalar ham kompetensiyaviy yondashuvni amalga oshirishda muhim vosita bo‘lishi mumkin. O‘quvchining ijrosini audio yoki video shaklida yozib olish va keyin tahlil qilish uning eshitish va refleksiya kompetensiyalarini rivojlantiradi. Bola o‘zini “chetdan” eshitganda, chalayotgan paytda sezmagan ko‘plab kamchiliklarni payqaydi. Elektron metronom ritmik barqarorlikni nazorat qilishga, interaktiv ilovalar esa nota savodini mustahkamlashga yordam beradi. Mashhur ijrochilarning yozuvlarini tinglash bolaning musiqiy dunyoqarashini kengaytiradi, unga turli talqinlarni solishtirish imkonini beradi. Biroq raqamli vositalar o‘z-o‘zidan natija bermaydi. Ular faqat aniq pedagogik maqsadga xizmat qilgandagina samarali bo‘ladi. Shuning uchun o‘qituvchi ulardan foydalanishni puxta rejalashtirishi va me’yorni saqlashi lozim.

Kompetensiyaviy yondashuvda ta’lim natijalarini aniq belgilash va ularni baholash alohida ahamiyatga ega. An’anaviy baholashda asosan yakuniy natija, ya’ni imtihondagi ijro hisobga olinadi. Kompetensiyaviy yondashuvda esa jarayon ham, natija ham baholanadi. O‘qituvchi oldindan “chorak oxirida o‘quvchi nimalarni qila olishi kerak?” degan savolga aniq javob beradi. Masalan, ikkinchi sinf o‘quvchisi o‘n olti taktli oddiy pyesani mustaqil tahlil qila olishi, uni to‘xtamasdan, to‘g‘ri ritm va applikatura bilan ijro eta olishi, ijrodagi asosiy dinamik o‘zgarishlarni bajara olishi, o‘z ijrosidagi kamida ikkita kamchilikni ayta olishi kerak. Bunday aniq mezonlar ham o‘qituvchiga, ham o‘quvchiga, ham ota-onaga tushunarli bo‘ladi va baholashni xolis qiladi.

Shu o‘rinda kompetensiyaviy yondashuvni joriy etishdagi qiyinchiliklarni ham tan olish kerak. Birinchidan, bu yondashuv o‘qituvchidan yuqori kasbiy tayyorgarlik, yangi usullarni o‘zlashtirish va dars rejalashtirishga ko‘proq vaqt sarflashni talab qiladi. Ko‘p yillik an’anaviy uslubga o‘rganib qolgan o‘qituvchilar uchun bu oson

(cc) BY

emas. Ikkinchidan, dars vaqti cheklangan va o‘quv dasturi ko‘pincha muayyan miqdordagi asarlarni o‘rganishni talab qiladi. Bu esa o‘qituvchini tezroq natijaga erishish uchun an’anaviy usullarga qaytishga undaydi. Uchinchidan, ba’zi ota-onalar ham bolaning “ko‘proq pyesa” o‘rganishini muhimroq deb hisoblaydi. Bu qiyinchiliklarni yengish uchun kompetensiyaviy yondashuvni bosqichma-bosqich, an’anaviy usullarning ijobiy tomonlarini saqlagan holda joriy etish maqsadga muvofiq.

Shuni ham ta’kidlash kerakki, kompetensiyaviy yondashuv an’anaviy fortepiano pedagogikasini inkor etmaydi. Rus va o‘zbek fortepiano maktablarining boy tajribasi, G.G.Neygauz, A.D.Artobolevskaya, L.A.Barenboym kabi buyuk pedagoglarning merosi bugun ham o‘z qimmatini yo‘qotmagan. Aksincha, ularning ko‘plab g‘oyalari kompetensiyaviy yondashuv bilan hamohang. Masalan, Neygauz o‘quvchining mustaqil fikrlashini, musiqani chuqur anglashini, ijroni ongli ravishda qurishini doimo ta’kidlagan. U o‘qituvchining asosiy vazifasi o‘quvchiga keraksiz bo‘lib qolish, ya’ni uni mustaqil ishlay oladigan darajaga yetkazish ekanini aytgan. Bu fikr kompetensiyaviy yondashuvning mohiyatini juda aniq ifodalaydi. Demak, gap eski tajribadan voz kechishda emas, balki uni zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan boyitishda.

Uy mashg‘ulotlarini tashkil etish ham mustaqil o‘qish kompetensiyasining muhim jihati hisoblanadi. Ko‘p ikkinchi sinf o‘quvchilari uyda qanday mashq qilishni bilmaydi. Ular pyesani boshidan oxirigacha bir necha marta chalib, ishni tugatgan deb hisoblashadi. Natijada xatolar takrorlanib, mustahkamlanib qoladi. Kompetensiyaviy yondashuvda o‘qituvchi bolaga qanday mashq qilish kerakligini ham o‘rgatadi. Qiyin joyni ajratib olish, uni sekin tempda alohida qo‘llar bilan o‘rganish, so‘ng birlashtirish, o‘z ijrosini tinglab baholash kabi usullar bolaning mashg‘ulot madaniyatini shakllantiradi. Buning uchun sodda “mashq rejasi” varaqalari, kundalikdagi aniq topshiriqlar, haftalik o‘z-o‘zini baholash jadvallari yaxshi yordam beradi. Bunda ota-onalarning qo‘llab-quvvatlashi ham muhim ahamiyatga ega.

O‘qituvchi shaxsi kompetensiyaviy yondashuvni amalga oshirishda hal qiluvchi omil bo‘lib qoladi. Eng yaxshi texnologiya ham uni qo‘llayotgan o‘qituvchi ishonmasa, bolaga qiziqish bilan yondashmasa, natija bermaydi. Kompetensiyaviy yondashuvda o‘qituvchi sabrli bo‘lishi, bolaga xato qilish huquqini berishi, uning har bir mustaqil qadamini qo‘llab-quvvatlashi kerak. U savol berishni, tinglashni, bolaning fikrini hurmat qilishni bilishi lozim. Shu bilan birga, o‘qituvchining o‘zi ham doimo o‘rganuvchi bo‘lishi, yangi metodik adabiyotlar, ilg‘or tajribalar bilan tanishib borishi, o‘z darslarini tahlil qilishi zarur. Aynan shunday o‘qituvchi o‘quvchida ham mustaqil o‘rganish va o‘z-o‘zini rivojlantirish ehtiyojini uyg‘ota oladi.

Yuqorida bildirilgan fikrlar ushbu tadqiqotning maqsad va vazifalarini belgilab beradi. Maqolaning maqsadi bolalar musiqa va san’at maktablarining ikkinchi sinf o‘quvchilariga fortepiano ijrochiligini o‘rgatishda kompetensiyaviy yondashuvga

(cc) BY

asoslangan pedagogik texnologiyalarni qo‘llashning nazariy asoslarini yoritish va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Bu maqsadga erishish uchun mavzuga oid pedagogik, psixologik va metodik adabiyotlarni tahlil qilish, ikkinchi sinf o‘quvchisi uchun fortepiano ijrochiligiga oid kompetensiyalar tarkibini aniqlash, ularni shakllantirishga xizmat qiluvchi pedagogik texnologiyalarni tanlash va dars jarayoniga moslashtirish, ta’lim natijalarini baholash mezonlarini ishlab chiqish hamda taklif etilgan yondashuvning samaradorligini pedagogik amaliyot davomida kuzatish vazifalari belgilandi. Tadqiqotda kuzatuv, suhbat, tahlil, qiyoslash va umumlashtirish usullaridan foydalanildi.

Tadqiqot obyekti bolalar musiqa va san’at maktablarida fortepiano ta’limi jarayoni, predmeti esa ikkinchi sinf o‘quvchilarida fortepiano ijrochiligiga oid kompetensiyalarni pedagogik texnologiyalar vositasida shakllantirish metodikasidir. Ishning yangiligi shundaki, unda ikkinchi sinf o‘quvchisi uchun fortepiano ijrochiligiga oid kompetensiyalar tarkibi aniqlashtiriladi va ularni shakllantirishda muammoli ta’lim, hamkorlikda o‘qitish, loyiha usuli, refleksiya hamda raqamli vositalarni uyg‘unlashtirgan yaxlit yondashuv taklif etiladi. Tadqiqot natijalaridan bolalar musiqa va san’at maktablari fortepiano o‘qituvchilari, musiqa ta’limi yo‘nalishidagi talaba va magistrantlar o‘z amaliy faoliyatida foydalanishlari mumkin.

Shunday qilib, ikkinchi sinf fortepiano ta’limida kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan pedagogik texnologiyalarni qo‘llash masalasi bugungi ta’lim talablari nuqtai nazaridan ham, bolaning shaxsiy rivojlanishi nuqtai nazaridan ham dolzarb. Bolani shunchaki pyesalarni chalishga emas, balki musiqani mustaqil o‘rganishga, tahlil qilishga, his qilishga va o‘z ijrosi uchun javobgarlikni his etishga o‘rgatish zamonaviy musiqa pedagogikasining asosiy vazifasidir. Quyida biz pedagogik amaliyot davomidagi kuzatishlarimizga tayangan holda ushbu yondashuvni qo‘llash tajribasini, uning bosqichlarini va erishilgan natijalarni bayon etamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Комил Буронович Холиков (2026). Схема интегрирования теории и гармонии по сфере изучения нового материала по фортепиано. Science and Education, 7 (3), 262-267.

2. Комил Буронович Холиков (2026). Основные дидактические задачи к укреплению основной темы изучения нового материала по фортепиано. Science and Education, 7 (3), 245-249.

3. Комил Буронович Холиков (2026). Об одной новой задаче тоники для создания модуляции или отклонения. Science and Education, 7 (3), 256-261.

4. Комил Буронович Холиков (2026). Определения тональности через функцию ткани гармонии. Science and Education, 7 (3), 250-255.

5. Komil Buronovich Xolikov (2025). Doira ta'limida davlat ta'lim standartlarini takomillashtirish yo'nalishlari. Science and Education, 6 (12), 357-361.

6. Komil Buronovich Xolikov (2025). Puflama cholg'ularni o'qitishda nazariy tayyorgarlikni shakllantirishning ilmiy-pedagogik asoslari. Science and Education, 6 (12), 339-345.

7. Komil Buronovich Xolikov (2025). BMSMda puflama cholg'ularni o'qitishning ilmiy-nazariy konsepsiyasini ishlab chiqish. Science and Education, 6 (12), 385-390.

8. Komil Buronovich Xolikov (2025). Puflama cholg'ularni o'rgatishda nazariy tayyorgarlikni shakllantirishning pedagogik mexanizmlari. Science and Education, 6 (12), 373-378.

9. Komil Buronovich Xolikov (2025). BMSM sharoitida puflama cholg'ularni o'qitish jarayonining nazariy modeli. Science and Education, 6 (12), 379-384.

10. Komil Buronovich Xolikov (2025). Doira o'qituvchilarini malaka oshirish tizimining ilmiy-amaliy asoslari. Science and Education, 6 (12), 367-372.

11. Komil Buronovich Xolikov (2025). Uzluksiz ta'lim tizimida milliy zarbli cholg'ular o'qitish metodologiyasi. Science and Education, 6 (12), 351-356.

12. Komil Buronovich Xolikov (2025). BMSM o'quvchilarida puflama cholg'ularni o'rgatishning nazariy-pedagogik asoslarini takomillashtirish. Science and Education, 6 (12), 391-396.

13. Komil Buronovich Xolikov (2025). Musiqa kollejlarida zarbli cholg'ular kafedralarining faoliyatini optimallashtirish. Science and Education, 6 (12), 362-366.

14. Komil Buronovich Xolikov (2025). BMSM muassasalarida doira pedagogikasi mutaxassislarini tayyorlash tizimi. Science and Education, 6 (12), 346-350.

15. Комил Буронович Холиков (2025). Сознательное восприятие музыки через позитронноэмиссионная томография мозга и сеть внимания к обучению произведения. Science and Education, 6 (1), 142-147.

16. Комил Буронович Холиков (2024). Распределитель стимулятора рефлекторной дуги ответ на информации полученного от источника аксонов и дендритов. Science and Education, 5 (12), 113-119.

17. Комил Буронович Холиков (2024). Психофизиологияда калий ва натрий ионларининг "бирлик" ҳамда "қарама қарши кураш" қонуни. Science and Education, 5 (12), 81-88.

18. Комил Буронович Холиков (2024). Ионларнинг миқдорий ўзгаришининг сифат ўзгариши реакциясидаги психофизиологик қонуниятлар теоремаси. Science and Education, 5 (12), 89-98.

19. Komil Buronovich Xolikov (2024). Miyelin tizimidagi virus himoyachilari haqida. Science and Education, 5 (12), 17-23.

20. Комил Буронович Холиков (2024). Переживание генератора мозга, вырабатывающий негармонические электрические колебания (импульсы) энергии нейронов. Science and Education, 5 (12), 105-112.

21. Комил Буронович Холиков (2024). Расчет психофизиологии по теории методом фильтрации внимания. Science and Education, 5 (12), 55-61.

22. Комил Буронович Холиков (2024). Интеграция поликомилойидов в области психофизиологии процесс объединения частей в целое. Science and Education, 5 (12), 75-80.

23. Комил Буронович Холиков (2024). Вспомогательные клетки нервной ткани и действия периферических нервов в Шванновском клетке. Science and Education, 5 (12), 99-104.

24. Комил Буронович Холиков (2024). Специальные приёмы обучение изучения обмена калия и натрия в пороге мембраны Шванье. Science and Education, 5 (12), 69-74.

25. Комил Буронович Холиков (2025). Поликомилойиды генератор музыкального воспроизводимости пианиста в психофизиологии. Science and Education, 6 (1), 134-141.

26. Комил Буронович Холиков (2025). Сложная многоголосная музыка и пластичность мозга в смещенном одних структур мозга относительно других. Science and Education, 6 (1), 148-153.

27. Комил Буронович Холиков (2024). Процесс исследования разными методами высшей нервной деятельности. Science and Education, 5 (11), 113-118.

28. Комил Буронович Холиков (2024). Механизмы взаимодействия между психическими и нейронными состояниями. Science and Education, 5 (6), 178-184.

29. Комил Буронович Холиков (2024). Психофизиологическая перестройка нейрона во время изучения музыкального произведения. Science and Education, 5 (6), 123-128.

30. Комил Буронович Холиков (2023). Метод динамических адаптации студентов музыкантов к учебному плану в общеобразовательной школе. Science and Education, 4 (7), 390-395